

O'quvchilar tomonidan "Matematika (majburiy) fani tarkibida geometriya fanidan test topshiriqlari bo'ladimi?" degan savol bilan murojaatlar bo'lmoqda. Matematika fanini geometriyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Matematika (majburiy) fanidan test topshiriqlari geometriya fanining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida (7-11-sinflar uchun) berilgan mavzulardan shakllantirilmaydi. Lekin matematika fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida (5-6-sinflar uchun) berilgan geometrik materiallardan foydalaniladi va test topshiriqlari shakllantiriladi. Jumladan, bular quyidagi mavzular doirasida bo'ladi:

Burchak. To'g'ri, o'tkir, o'tmas va yoyiq burchaklar. Uchburchak, uning perimetri va turlari. Yuz. To'g'ri to'rtburchak va kvadrat yuzi. Yuz o'lchov birliklari. Aylana va doira. Aylana uzunligi va doira yuzi. Uchburchakning yuzi. Katakli qog'ozda yuzlarni hisoblash. To'g'ri burchakli parallelepiped va kub. Hajm. Hajm o'lchov birliklari. To'g'ri burchakli parallelepiped va kub hajmi formulalari.

Matematika (majburiy) fani tarkibidagi test topshiriqlari quyidagi bo'limlardan shakllantiriladi:

1. Natural, butun, ratsional, irratsional, haqiqiy sonlar. Natural sonlar ustida amallar.
2. Butun sonlar ustida amallar.
3. Ratsional sonlar ustida amallar.
4. Nisbat va proporsiya.
5. Tenglamalar va tenglamalar sistemasi (chiziqli va chiziqli tenglamalar sistemasi).
6. Foiz va unga doir masalalar.
7. Kombinatorika va ehtimollar nazariyasi.
8. Ketma-ketlik, qonuniyat, mantiq, algoritm.
9. Grafiklarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili.
10. Jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili.
11. Hisoblash qoidalari (amallar bajarish, arifmetik kvadrat ildiz, miqdorning taqribiy qiymati, sonlarni yaxlitlash, absolut va nisbiy xatolik, sonning moduli, standart shakli).
12. O'lcham birliklari.
13. Geometrik shakllar va ularning o'lchovlari.
14. Fazoviy jismlar va ularning o'lchovlari.
15. Mulohazalar.

Bu bo'limlar o'quvchining matematik savodxonligini baholash va matematik bilimlarini kundalik hayot turmushda qo'llay olish, foydalanish kompetensiyasini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'limlar hisoblanadi. Ushbu bo'limlardagi misol va masalalar sodda, qiziqarli bo'lib, geometriyaning eng asosiy sodda tushunchalarini qamrab oladi.

Davlat test markazi barcha abituriyentlarga muvaffaqiyat tilaydi!!!

@rasmiydtm – Davlat test markazining rasmiy telegram kanali

**Matematika (majburiy) fani tarkibidagi bo‘limlarga mos namunaviy
TEST TOPSHIRIQLARI**

1. 1; 3; 5 va 15 ga qoldiqsiz bo‘linadigan eng kichik natural sonni toping.

- A) 15 B) 30 C) 45 D) 60

2. Hisoblang: $(-40)^2 + 40 \cdot (-39)$

- A) 40 B) 39 C) -40 D) -39

3. Hisoblang: $\left(3 + \frac{1}{5}\right) : \frac{16}{25} + (8,5 - 4,5) \cdot \left(4\frac{1}{3} - 2\frac{1}{3}\right)$

- A) 12 B) 10 C) 13 D) 15

4. Ovqat tayyorlash uchun kuniga 0,3 litr yog‘ ishlatiladi. 3 litr yog‘ necha kunga yetadi?

- A) 6 B) 10 C) 12 D) 9

5. Tenglamani yeching: $0,3(x+3) = 0,4(x-3)$

- A) 22 B) 21 C) 24 D) 19


6. 2750000 so‘mning 20 %i necha so‘m bo‘ladi?

- A) 550000 B) 55000 C) 330000 D) 3300000

7. 3 ta turli kitobni 3 ta o‘quvchiga (har biriga bir donadan berish sharti bilan) necha xil usulda berish mumkin?

- A) 6 B) 4 C) 2 D) 3

8. Siniq chiziq rasmda berilgan qonuniyat bo‘yicha davom ettirilsa, qaysi nuqtadan o‘tadi?




- A) E nuqtadan B) F nuqtadan C) M nuqtadan D) N nuqtadan

Davlat test markazi barcha abituriyentlarga muvaffaqiyat tilaydi!!!

@rasmiydtm – Davlat test markazining rasmiy telegram kanali

9. Quyidagi grafik asosida to'g'ri ma'lumotni toping.



- A) 50-kuni 750 ta mahsulot sotilgan. B) 60-kuni 850 ta mahsulot sotilgan.
 C) 70-kuni 800 ta mahsulot sotilgan. D) 80-kuni 700 ta mahsulot sotilgan.

10. Quyidagi jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, qaysi yog' qolgan yog'larga nisbatan arzon (so'm / litr) ekanligini aniqlang.

Turi	Hajmi	Narxi
Zig'ir	1 litr	11000 so'm
Kunjut	0,9 litr	10000 so'm
Zaytun	1,8 litr	19000 so'm
Paxta	2 litr	20000 so'm

- A) Zig'ir
 B) Kunjut
 C) Zaytun
 D) Paxta

11. Agar $3,1409 < 3,141$ bo'lsa, u holda 5,25 ning butun qismini aks holda 5,25 ning kasr qismini toping.

- A) 3 B) 0,141 C) 5 D) 0,25


12. $8m^275dm^2 = \boxed{?} dm^2$

- A) 155 B) 875 C) 600 D) 8075

Davlat test markazi barcha abituriyentlarga muvaffaqiyat tilaydi!!!


@rasmiydtm – Davlat test markazining rasmiy telegram kanali

13. 1 m^2 devorni bo'yash uchun 100 g bo'yoq ishlatilsa, rasmda tasvirlangan uyning oldi qismini bo'yash uchun necha gramm bo'yoq ishlatiladi?



- A) 1700 B) 1800 C) 1400 D) 1100

14. Jismning hajmini (cm^3) toping.



- A) 192 B) 216 C) 180 D) 198

15. A mulohaza “Har qanday toq son 2 ga qoldiqsiz bo‘linadi”, B mulohaza esa “6 soni 4 ta natural bo‘luvchiga ega”. Ushbu mulohazalar asosida to‘g‘ri javobni toping.

- A) A yolg‘on va B rost B) A va B rost
C) A rost va B yolg‘on D) A va B yolg‘on

Davlat test markazi barcha abituriyentlarga muvaffaqiyat tilaydi!!!

@rasmiydtm – Davlat test markazining rasmiy telegram kanali